

NARJON ATABAYEVANING "OG'ILNABAT" QISSASINING SYUJET XUSUSIYATLARI

Umirzakova Oltinoy

Berdoq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti
"Adabiyotshunoslik" (qoraqalpoq adabiyoti) mutaxassisligi
1-bosqich magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20524412>

Annotatsiya: Ushbu maqolada Narjon Atabayevaning "Og'lnabat" qissasida syujetning o'ziga xos xususiyati, syujet turlari va unsurlari (elementlari) hamda kompozitsiyasi haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Syujet, syujet turlari (xronikal, retrospektiv, konsentrik, assotsiativ), syujet unsurlari (ekspozitsiya, tugun/voqeaning boshlanishi, kulminatsiya, yechim), kompozitsiya.

Adabiyotshunoslik ilmida badiiy asardagi syujet alohida ahamiyatga ega. Syujet (fransuzcha sujet — narsa, mavzu, mazmun ma'nosida) — badiiy asarda qahramonlar xarakterining rivojlanish tarixini ko'rsatadigan voqealar tizimidir. Syujetsiz hech qanday asar bo'lishi mumkin emas, chunki adabiyot hayotni obrazlar orqali ochib beradigan bo'lsa, syujet esa M.Gorkiy aytganidek: "odamlarning o'zaro munosabatlarining bog'lanishlari, qarama-qarshiliklari, simpatiyalari, antipatiyalari — u yoki bu xarakterlar gavdalanishining va rivojlanishining tarixidir" [1, 204].

Chunki badiiy asarda qahramonlarning xatti-harakatlari orqali voqea va hodisalar yuz beradi hamda rivojlanadi. Bizning bu fikrimizni tadqiqotchi T. Boboyevning: «Syujet badiiy asarda tasvirlangan xarakterning mazmunini aks ettiruvchi tizim, kengroq ma'noda aniq voqealar liniyasida payda bo'ladigan xarakterlar tarixi» [2, 107], — degan so'zlari ham isbotlaydi. Syujetning asosiy unsurlari hisoblangan ekspozitsiya, chigallashuv (tugun), konflikt, kulminatsiya va yechimning voqealarni badiiy-obrazli tarzda aks ettirishda roli kattadir.

Yozuvchi Narjon Atabayevaning "Og'lnabat" qissasining syujeti hayotiy voqealarga asoslanadi. Eng asosiy mavzusi — muhabbat. Voqealar Karomatdin va Og'lnabat atrofida yuz beradi. Karomatdin bilan Og'lnabat bir-birini qattiq yaxshi ko'radigan oshiqlar. Qissadagi voqealar xronologik tartibda berilmaydi. Chunki shunday bo'lganida, asar tarjimai hol ko'rinishida bo'lib qolar edi. Asar Karomatdinning necha yillardan so'ng qishloqqa qaytib, u yerda bo'lib o'tgan voqealarni yodga olishidan boshlanadi. O'lis shahardan ta'tilga kelgan Karomatdinga endi bu qishloqda yashash qiyindek tuyuladi. Sababi, bu qishloqda uning suyuklisi bilan o'tkazgan damlari har qadamda yodiga tushaveradi. Muallif Karomatdinning ichki kechinmalarini, endi qishloqda qanday yashay olishi haqidagi o'ylarini mahorat bilan tasvirlay olgan. Har qanday ijodkorning xarakter yaratish uslubi ilmiy jihatdan tahlil qilinganda, muallif tili bilan qahramonlar tilining mustahkam bog'liqligi ko'zga tashlanadi. Bunday ko'rinishlar, albatta, har bir yozuvchining o'z uslubiga bog'liq. Ayrim yozuvchilarning asarlarida bayon muallif nomidan olib borilsa, ayrim asarlarda qahramon tilidan bayon qilinadi.

"...O'lis shahardan ta'tilga kelgan Karomatdinga endi bu qishloqda yashash qiyindek tuyuladi. Atrofga qaragan sayin ko'ngli quvlanib, g'am bosib, tushkunlikka tushaveradi. Qishloq-ku, o'sha o'sha qishloq. O'zi tabiatini sevib, hech bir o'lkaga, go'zal yurtlarga almashtirib bo'lmaydi deb o'ylaydigan qadrdon tug'ilgan yeri, ota makoni. Baribir bu yerda o'zing sevgan odamlaring bo'lmasa, yuraging hallos urib kelgani bilan quvonching, sog'inching tatimas ekan-da!" [3, 157].

Syujet turlari

Syujet quyidagi turlarga bo'linadi:

- **Xronikal syujet** — voqealar boshidan boshlanib, ketma-ket (izma-iz) soʻz etiladi.
- **Retrospektiv syujet** — voqealar boshidan ketma-ket soʻz etilmay, balki voqeaning maʼlum bir oʻrnida toʻxtalib, uning oʻtmishiga, oldingi voqealarga murojaat qilinadi.
- **Konsentrik syujet** — bunda voqea shunchaki soʻz etilmaydi, voqealar ortga chekinib tasvirlanmaydi. Konsentrik syujetda biror hodisaning sabablarini tahlil qilish jarayonida yuz bergan voqealar kitobxonning koʻz oʻngida gavdalanadi.
- **Assotsiativ syujet** — asosan lirik asarlar uchun xarakterli boʻlib, lirika tashqi hodisalarga shoirning munosabati yoki tashqi hodisalar taʼsirida shoir yodida yuzaga kelgan tuygʻularga asoslanadi [4, 179].

Ushbu koʻrsatilgan turlarga koʻra, yozuvchining qissasidagi syujetni retrospektiv syujet qatoriga kiritamiz. Chunki qissa syujetida voqealar Karomatdinning shahardan qishloqqa qaytishi bilan boshlanadi, soʻng Karomatdinning yoshlik yillari, qishloqdagi turmushi, qishloqda bundan buyon turgisi kelmay shaharga oʻqishga ketish voqealari beriladi. Yaʼni, qissa boshida hozirgi holat tasvirlanadi, keyin esa Karomatdinning oʻtmishni eslashi orqali voqealarning asosiy sababi bosqichma-bosqich ochiladi. Karomatdinning hozirgi holati oʻtmish orqali oydinlashadi. Bu oʻrinda bosh qahramonning ichki sezgi-tuygʻulari, xotiralari muhim oʻrin egallaydi. Demak, qissada voqealar maʼlum bir oʻrinda toʻxtagan.

Bir-biri bilan uzviy ravishda rivojlanib borayotgan voqealarning qisqacha mazmunli yigʻindisi syujet deb ataladi. Odamlarning bir-biri bilan bogʻlanishini, munosabatini koʻrsatish asarda asosiy oʻrin tutadi. Umuman olganda, inson asarning asosi hisoblanadi. Shunga koʻra, syujet bir nechta unsurlardan tashkil topadi.

Asar voqeasi boshlanishidan oldingi holatni, umuman muhitni tasvirlab, voqea ishtirokchilari bilan tanishtiradigan adabiy asarning boʻlimi ekspozitsiya deyiladi. U syujetning bir komponenti boʻlib, unda badiiy asardagi voqealar dunyoga keladigan oʻrin, muhit va sharoit tasvirlanadi. Bunda asar qahramonlarining baʼzilariga tavsif beriladi, oʻsha davrdagi yoki geografik yoxud tarixiy oʻringa, makonga sifatlama beriladi, umumiy yoki aniq vaziyatga tushuncha beriladi. Ekspozitsiyaning asosiy xususiyatlaridan biri — u asarning syujet oqimidagi hayotiy toʻqnashuvga (konfliktga) toʻgʻridan-toʻgʻri taʼsir koʻrsatmaydi, faqat vaqt va makonni koʻrsatuvchi manba sifatida qoladi. Ekspozitsiya baʼzan prolog deb ham tushuntiriladi [5, 118].

Masalan, muallif qissa boshida, yaʼni prologda shunday yozadi:

“Tarix charxpalagi tinmay aylanib turgani bilan oʻsha aylanishlarning har birining oʻziga xos xususiyatlari boʻladi. Boshqalar singari bizning avlodimiz ham boshidan koʻp narsalarni oʻtkazdi. Yoʻqchilikni, toʻqchilikni, urush yillaridan keyingi inqirozlarni. Meni soʻz yuritmoqchi boʻlgan qahramonlarim — Karomatdin, Ogʻilnabat va boshqalar. Ular ham koʻp qatori yurtimizning mustaqillikka erishgan yillaridagi muammolarni boshlaridan kechirishdi. Bu davrda bozor tizimiga oʻtishni toʻgʻri tushunib-tushunmay hammaning savdogarga aylanishni xanglashi. Ular bilan birga koʻchish kabi algʻov-dalgʻovliklar, oʻrtadagi mustahkamlangan chegaralar. Lekin, qanday davr boʻlmasin, muhabbat baribir boʻlaverar ekan. U bor joyda rashk ham, sogʻinch ham, eng ogʻiri — ayriliq ham boʻlishini, ayniqsa oshiq boʻlib boshidan kechirganlar yaxshi bilsa kerak.

Mening qahramonlarim boshqa asarlardagi kabi emas, hayotda haqiqatan bor boʻlgan, oʻzimiz bilan birga yashayotgan odamlardir. Keling, maʼquli, ular haqida qalamimning kuchi yetganicha badiiy soʻz naqshlari bilan bezab, yozib va aytib berishga harakat qilib koʻrayin”.

Voqeaning boshlanishi (Tugun) — ekspozitsiyadan keyingi boʻlim. Bu voqeaning boshlanishi va undan buyogʻiga rivojlanishidan darak beradi. “Ogʻilnabat” qissasida Karomatdinning qishloqqa

kelib, otasi bilan o‘zaro suhbatlashishi voqeaning boshlanishini (tugunini) belgilaydi. Bu voqeaning bundan buyon qanday yo‘nalish olishidan darak beradi.

Voqeaning rivojlanishidan kelib chiqqan uning eng yuqori nuqtasi — kulminatsiyadir. Asardagi voqealar keskinlashuvining eng yuqori cho‘qqisi bo‘lib, bunda voqealar konflikti juda aniq ko‘zga tashlanadi. Qissada Karomatdinning suyaklisi Og‘ilnabatning olti yillik ayriliqdan so‘ng qishloqqa qaytib kelishi, uning Karomatdin bilan uchrashishi voqealarning keskinlashuviga olib keladi. Sababi, Karomatdin Zariyfa ismli qiz bilan unashirib qo‘yilgan edi. Karomatdinning Zariyfa bilan uchrashishi, to‘yi bo‘lishi oson kechmadi. Karomatdin suyaklisi Og‘ilnabatni unuta olmadi. Ularning orasiga tushgan ayriliq Karomatdinga juda og‘ir botdi. Qissaning uchinchi bo‘limida Karomatdin Zariyfa bilan uchrasha boshlaydi. Biroq, Karomatdinning yurak to‘rida o‘sha yoshlikdan birga o‘ynab-o‘sgan Og‘ilnabati turadi. Bu bo‘limda bosh qahramonning ichki o‘y-tuyg‘ulari tinch emasligini anglab yetamiz. Qahramon bilan birga o‘ylanamiz, qiynalamiz.

“Demek o‘zga qizga bog‘lanib boryapman, jonim Og‘ilnabat, va‘dalar qanday edi? Sen boshim yerga kirguncha deb yig‘lab, sevib turib va‘da berding. Men ham va‘da berdim. Yo‘q, men va‘da bermabman. Mening va‘dam shu bo‘lsa kerak: “Meni boshqa qizga almashtirsang, seni o‘ldiraman, Karam” deganingda, “O‘ldir meni, Og‘ilnabatim” deganman. U o‘zicha qayg‘uli jilmaydi”.

Mana, qahramonning ichki tuyg‘ulari monolog orqali juda ta‘sirli berilgan.

Xulosa qilib aytganda, N.Atabayevaning “Og‘ilnabat” qissasining syujet xususiyati o‘ziga xosligi bilan prozada alohida o‘rin egallaydi. Qissada syujetning retrospektiv turlarini va unsurlarini uchratamiz. Voqealarning rivojlanishi ko‘proq qahramonning ichki kechinmalari orqali ochilib, syujet dinamikasining ruhiy holatlar bilan bog‘liqligi ko‘zga tashlanadi. Qissada syujet shunchaki voqealar tizimasi emas, balki insonning ruhiy holatini, ijtimoiy muhit va davr muammolarini ochib beruvchi vositadir.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Axmetov S. va b. Adabiyotshunoslik atamalarining ruscha-qoraqalpoqcha izohli lug‘ati. — Nukus: «Bilim», 1994, 204-b.
2. Boboyev T. Adabiyotshunoslikka kirish. — Toshkent, 2009, 107-b.
3. Atabayeva N. Muhabbat marg‘iyasi (Qissalar toplami). — Nukus: «Qoraqalpog‘iston», 2025, 157-b.
4. Izzat Sulton. Adabiyot nazariyasi. — Toshkent, 1980.
5. Jrimbetov Q., Genjemuratov B. Adabiyot nazariyasi. — Toshkent, 2018, 118-b.